

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

— 2-2023 —

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>R.Arslonzoda, O.Maripov</b>	
O'zbekiston Respublikasida davlat arxivlari faoliyatining takomillashib borishi .....	318
<b>R.Urazova</b>	
Avesto yashlarida Mitraning sifatleri .....	325
<b>N.Nizametdinov</b>	
Markaziy Osiyoning Xitoy bilan aloqalari tarixi.....	331
<b>I.Burxonov</b>	
Asomiddin O'rinboev ilmiy merosida Abduxoliq G'ijduvoni tasavvufiy ta'limotiga oid ruq'alarning o'rganilishi.....	338
<b>N.Jumaev</b>	
XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro vohasi dehqonchilik madaniyati tarixidan .....	342
<b>D.Akramov</b>	
Xalq maorifining nazariy asoslari.....	348

## ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>G.Oripova</b>	
Mustaqillik davri o'zbek lirikasida ritm va ohangdorlik.....	354
<b>I.Baltayeva</b>	
Adabiy vorisiylkning xorij adabiyotida o'rganilishi.....	359
<b>F.Oxunjonova</b>	
XIX asr oxiri va XX asr boshlarida zullisonaynlik an'anasi takomili (Nodim, Xilvatiy, xayratililar ijodi misolida) .....	362
<b>D.Uralova</b>	
Ulug'bek Hamdamning "Safar" hikoyasida ramziy obrazlar uyg'unligi.....	366
<b>S.Begmatova</b>	
Jahon adabiyotida distopik asar turlariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar .....	370
<b>A.Yuldashev</b>	
Alisher Navoiy asarlarida so'z tavsifi .....	374
<b>O.Barziyev</b>	
Farzand taqdiriga murojaat yoki ularga nasihat qilish mavzusiga oid an'anaviy poetik turkumlar .....	382
<b>D.Sultonova</b>	
Badiiy kriminal asarlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.....	387
<b>S.Alibekova</b>	
O'tkir Hoshimovning hajviy xarakter yaratish mahorati .....	392
<b>Sh.Sherg'oziyev</b>	
"Boburnoma" matnida foydalanilgan saj'i mutarrafnig ingliz tili tarjimalarida aks ettirilishi .....	396
<b>X.To'raxonova</b>	
Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida badiiy tasviriy vositalarning qo'llanilishi .....	400
<b>D.Hazratkuliyon</b>	
Hozirgi O'zbekiston tojik she'riyatida bediliy uslub an'analariga izdoshlik (Ja'far Muhammad Termiziy she'ri misolida) .....	403
<b>M.Narziqulov</b>	
Tojik adabiyotida g'azalning mundariyasi va shakli o'zgarishi .....	410
<b>M.Mirzoyev</b>	
Farzona Xo'jandiy she'rlarida mifologik personajlar badiiy ifodasining xususiyatlari .....	420

## TILSHUNOSLIK

<b>Z.Alimova</b>	
Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi ayrim forscha qo'shma so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari haqida .....	425
<b>O.Nazirova</b>	

**XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA BUXORO VOHASI DEHQONCHILIK  
MADANIYATI TARIXIDAN****В КОНЦЕ 19 И НАЧАЛЕ 20 ВВ. ИЗ ИСТОРИИ КУЛЬТУРЫ ЗЕМЛЕДЕЛИЯ  
БУХАРСКОГО ОАЗИСА****IN THE LATE 19TH AND EARLY 20TH CENTURIES FROM THE HISTORY OF  
BUKHARA OASIS FARMING CULTURE****Jumaeva Nilufar Axmatovna<sup>1</sup>****<sup>1</sup>Jumaeva Nilufar Axmatovna**

– Buxoro davlat universiteti Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasida katta o'qituvchisi

**Annotatsiya**

Maqolada Buxoro vohasi aholisining XIX asr oxiri XX asr boshlarida dehqonchilik bilan bog'liq urf – odat va marosimlari o'rganilib, milliy qadriyatlarimizda ularga bo'lgan hurmat va e'tibor juda yuqori ekanligi Sharq allomalarining qarashlari asosida tahlil qilib beriladi. Hozirda ziroatchilikning jamiyatdagi mavqeyini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinib, bu islohotlarning samaradorligi ko'p jihatdan milliy qadriyatlarimizga bog'liqligi ko'rsatib beriladi.

**Аннотация**

В статье исследуются обычаи и обряды, связанные с земледелием жителей Бухарского оазиса в конце 19-начале 20 веков, и уважение и внимание к ним очень высоки в наших национальных ценностях, основанных на взглядах восточных ученых. В настоящее время анализируются реформы, проводимые для улучшения положения сельского хозяйства в обществе, и показано, что эффективность этих реформ во многом зависит от наших национальных ценностей.

**Abstract**

In the article, the customs and rituals related to farming of the inhabitants of the Bukhara oasis in the late 19th and early 20th centuries are studied, and the respect and attention to them is very high in our national values is analyzed based on the views of the scholars of the East. Currently, the reforms implemented to improve the status of agriculture in society are analyzed, and it is shown that the effectiveness of these reforms largely depends on our national values.

**Kalit so'zlar:** urf-odat, kult, dehqonchilik, farishtalar, Navro'z bayrami, otashparastlik, hosildorlik, mifologiya, olov

**Ключевые слова:** обычаи, культ, земледелие, ангелы, праздник Навруз, поклонение огню, урожайность, мифология, огонь Senior lecturer of the Department of Archeology and History of Bukhara State University

**Key words:** Tradition, cult, farming, angels, Navruz holiday, fire-worshipping, harvest, mythology, fire.

**KIRISH**

Ziroatchilik bilan bog'liq bo'lgan xalq urf-odatlarini va marosimlar dono xalqimiz tafakkurining g'aroyib mo'jizalaridan biridir. Ajdodlarimiz asrlar davomida ularga amal qilish bilan birga o'ziga xos qoidalar, duolar, aytimlar va alomatlarni ham yaratishgan. Ijtimoiy kundalik hayotda katta o'rin tutgan bu marosimlarda, avvalo ziroatchilik bilan bog'liq udum va marosimlar o'zining kelib chiqish ildizlari islomgacha bo'lgan tabiat hodisalarini ilohiylashtirish, osmon va yer ilohlariga sig'inish bilan bog'liq bo'lgan. Shuningdek, ko'plab ziroat urf-odat va marosimlaridan islomgacha bo'lgan e'tiqodiy qarashlar bilan islomiy qarashlarni qorishgan uyg'unligi transformatsiyasi.

Bajarilayotgan har bir irim, urf-odat zamirida voha ahlining ziroatchilik bilan bog'liq asriy hayotiy tajribalari, ziyraklik bilan uzluksiz kuzatishlari jamlangan bo'lib, ularning tub mohiyatiga e'tibor berilsa, ezgulikning hayotbaxsh nurlariga talpinish, dehqonchilikda samarali hosil yetishtirish, yuz berishi mumkin bo'lgan ko'ngilsizliklardan ogoh etish, halol mehnatni rag'batlantirish tabiat ne'matlarini ko'paytirish va avaylab asrashdan iborat bo'lgan.

**MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI**

XIX asr oxiri – XX asrning boshlarida Buxoro xonligiga qarashli barcha tumanlarida yashovchi aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida patriarxal – urug‘chilik munosabatlari an‘analari hukm surardi. Bu davrda Rossiyaning O‘rta Osiyoni bosib olishi o‘zbek xalqi hayotidagi muhim ijtimoiy-siyosiy va madaniy muammolarni yoppasiga yuzaga chiqardi. Ijtimoiy taraqqiyotning mana shu bosqichi dehqon va ziroatchilik bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha rasm-rusumlarning xarakterini belgilab berdi. Mavzuga doir adabiyotlarni quyidagi guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. Dala yozuvlari.
2. Sovet davrida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar.
3. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda nashr yetilgan tadqiqotlar.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Tadqiqot ishi tarixiylik tamoyili, xronologik va qiyosiy tahlil usullariga tayanadi.

**TAHLIL VA NATIJALAR**

XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Buxoro vohasida dehqonchilik madaniyatining o‘ziga xos an‘analari yuzaga kelgan. Bu an‘analar avvalambor dehqonchilik texnikasi va mehnat qurollari bilan bog‘liq bo‘lgan. Buxoro vohasi aholisi yer – suvdan jamoa bo‘lib foydalanishgan. Shu bilan birga barcha sug‘orish ariqlarini ham har yili kuz fasli va erta bahorda birgalikda tozalashgan. Katta ariqlarni qazish va to‘g‘on va dambalar qurish ishlari esa ommaviy ravishda, hashar yo‘li orqali jamoa bo‘lib bajarilgan. Albatta, bu ishlarni amalga oshirishda yuzlab – minglab jamoa a‘zolari qo‘l kuchidan foydalanilgan.

Vohada XX asrning boshlariga kelib, sinfiy jamiyat talablari asosida yerlar tobora yakka shaxslarning, ya‘ni yirik yer egalarning qo‘liga o‘tib, ularning xususiy mulkiga aylana boshlashi bilan jamoaviy munosabatlar ham asta-sekin yemirila boshlangan. Shunga qaramasdan Buxoro amirligining bekliliklarida hamda tog‘ va tog‘ oldi hududlarda jamoaviy munosabatlar saqlanib qolishi geohududiy omil bilan bo‘liq. Shu sababli anhor va ariqlarni tozalashga jamoa a‘zolari va boylardan, ya‘ni katta yer egalardan alohida-alohida hasharchilar olingan. G‘uzor bekligiga qarashli Qorako‘l qishloqilik Mulla Davlat, Qodirko‘l oqsoqol, Yo‘ldosh amin, To‘raboy, Suvonboylarning ancha yeri bo‘lgan. Ular suv yo‘llarini tozalash uchun ko‘proq mardikor yollashgan. Vohaga yaqin yoki undan sug‘oriladigan qishloqlar aholisi alohida bir jamoani tashkil etgan. Tabiiyki, bu qishloq jamoalari yana kichik ekin maydonlari ham tuzgan. Ularni vohaning bir qancha tumanlarida “paykal” deb ataganlar.

An‘anaga ko‘ra, erta ko‘klamda dala ishlari boshlanishidan oldin har yili voha qishloq aholisi o‘zlarining jamoa yerlariga to‘planib, oralaridan yoshi ulug‘, obro‘li va tajribali bir kishini oqsoqol qilib saylashgan. Ushbu yig‘inda mirob, dorug‘a, hatto sartarosh xam saylangan. Faqat oilali kishilar hisobga olinib, paykallarga bo‘lingan. Har bir Paykalga 8 kishi (“tan”) kirgan. Demak, shu 8 kishi paykalga taalluqli barcha yengil va mashaqqatli ishlarni amalga oshirgan. Ariq va anhorning uzun-qisqaligiga qarab paykallardan hasharchilar olingan. Paykal a‘zolari qat‘iy tartib intizom asosida navbati bilan suv yo‘llarini tozalashda qatnashishgan.

Paykalga kirmagan, suv chiqishi qiyin bo‘lgan partov erlar, ya‘ni bo‘sh yerlar **«posira»**, unda ishlovchilar “posirakorlar” deb atalgan. Posira yerlarda hosil yetishtirish juda mushkul bo‘lgan. Dastlab bu erlarga lalmikor ekinlar ekilib, qor va yomg‘ir suvi bilan sug‘orilgan. Kamdan-kam hollarda dehqonlar o‘zlariga tegishli yerlarni oqar suv bilan bir — ikki bor sug‘orishgan, ya‘ni bunday yerlarga ekilgan ekinlar zahmat chekish bilan sug‘orilgan. Shu sababdan bo‘lsa kerak suv inshootlarini tartibga keltirishda posirachilar kamdan – kam hollardagina ishtirok etishgan.

Vohadagi barcha beklilarga qarashli qishloq aholisining jamoa yeri va posira yerlaridan tashqari o‘z tomorqasi ham bo‘lgan. Bu yerlar qishloqlarda 5 paxsa devor yoki chimdevor bilan o‘rab olingan. Qarako‘l, Olot va boshqa tumanlarning dasht hududlarida devor bilan o‘rashga ehtiyoj sezilmaganligi bois ma‘lum bir belgilar qo‘yilgan va bunday yerlar odatda “hayat” deb atalgan.

O‘rta Osiyoning boshqa hududlarida bo‘lgani singari Buxoro vohasida ham suv tanqisiligi yuz berib turgan. Shu bois mahalliy xalq sug‘orish shoxobchalaridan foydalanishning tartib – qoidalari va usullarini yaxshi bilishgan. Dehqonlar suv tanqis bo‘lgan hududlarda suvdan navbat bilan foydalanishga qat‘iy rioya etishgan. Suv miqdori muayyan tartibda o‘lchangan. Masalan, “bir suv-ariqdan bir kecha-kunduzda oqib o‘tgan suv: “bir tegirmon” yoki “tosh” — bir pud donni

tegirmonda tortguncha ketadigan suv “bir qo‘sh” — bir qo‘sh ho‘kiz bilan haydalgan yerni sug‘orish uchun etadigan suv” kabi suv o‘lchovlari keng qo‘llanilgan. Buxoroning suvga tanqis tumanlarida jamoa foydalanadigan paykallarda bir qo‘sh yerga beriladigan suv “mo‘ndi” bilan o‘lchangan. Mo‘ndi — tubi teshilgan, taxminan o‘n litr suv sig‘adigan oddiy sopol ko‘zacha bo‘lib, undagi suv oqib bo‘lishiga qarab suv miqdorini o‘lchaganlar. Shuni ta‘kidlash kerakki, paykal va hayat yerlarini sug‘orishning u yoki bu usullari suvning oz — ko‘pligiga qarab tanlangan. Vohaning o‘rta qismida dehqonlar sug‘orishning “bir quloq” usulidan ko‘proq foydalanishgan. Bunda vaqt hisobi quyosh harakatiga qarab belgilangan. Miroblar paykal a‘zolarining yeri qanchaligini juda yaxshi bilishgan va shunga qarab vaqt ajratishgan. XX asrning boshlariga kelib boy-badavlat kishilar o‘z mavqelaridan foydalanib, ayrim hollarda belgilangan tartiblarni ham buzishgan.

Romitan tumanidagi Qo‘rg‘on qishlog‘ida 50 ta paykal bo‘lib, bir kecha — kunduzda uchtdan paykal sug‘orilishi kerak bo‘lgan. Ikki ta paykal kunduzi, bittasi esa kechasi sug‘orilgan. Har paykalga 16-17 kunda bir bor navbat kelgan. Qo‘shni qishloq Romishda esa 37 taga yaqin paykal bo‘lgan. Qishloq oqsoqoli boshchiligida chokboshlar (bu qishloqda paykalboshi yig‘ilishib, suv navbatini belgilashgan. O‘rta kattalikdagi bir chelak suv keladigan sopol ko‘zaning tagini teshib suv oqizishgan. Aynan shu holni boshqa qishloqlarda ham ko‘rish mumkin edi.

Paykallardagi ekinlarni suvning miqdoriga qarab sug‘orishgan. Agar suv kam bo‘lsa, poxol qilib, bostirib sug‘orilgan. Mabodo, suv uzoq vaqt oqadigan bo‘lsa, ekinlarga egatlar yoxud jo‘yaklar orqali suv oqizishgan. Ekinlar qonib suv ichishiga, ayniqsa, katta e‘tibor qaratilgan. Paykallarni jo‘yaklardan oqizib sug‘orish usuli ko‘pincha tunda amalga oshirilgan.

Buxoro vohasi sharoitida dehqonchilik xo‘jaligi sun‘iy sug‘orishga asoslanadi. Yerlarning unumdorligi, ekinlarning hosildorligi sun‘iy sug‘orish, ariqlarning uzayishi va kengayishi hisobiga yildan yilga ortib borgan. XIX asrning oxiri — XX asr boshlariga kelib sug‘orish tarmoqlariga e‘tibor pasayganligi kuzatiladi. Daryo suvi kam bo‘lganligi tufayli ariqlar va shoxlar (ariqdan kichik, ayrim paykallarni, qishloqdagi yerlarni sug‘oradigan suv yo‘li)ni qum, loyqa va suv o‘tlari bosib ketgan. Natijada yildan-yilga sug‘oriladigan maydonlar miqdori qisqarib borgan. Bu esa bir qator sabab va omillar bilan bog‘liq bo‘lgan. Yerlarning kattagina qismi yirik yer egalarning qo‘liga o‘tib ketgach, sug‘orish ishlariga e‘tiborsizlik bilan qarash kuchaygan. Yerga bir mavsumda bug‘doy yoki arpa ekib olingach, paykallar o‘tloqqa aylantirilgan. Vaqt o‘tishi bilan bir qancha ariq — zovurlar ko‘milib o‘z ahamiyatini yo‘qotgan.

Insoniyat hayoti, xo‘jalik faoliyati ko‘p jihatdan dehqonchilik ishlab chiqarishiga bog‘liq bo‘lib, mehnat qurollari uzoq o‘tmishdan qolgan shakllarda edi. Yerni haydab shudgor qilish, yoki ekinlarga ishlov berish qo‘sh-ho‘kizlar yordamida amalga oshirilgan, shuning uchun ishchi hayvonlarning buxoroliklar hayotidagi ahamiyati nihoyatda baland bo‘lgan. Ishchi hayvonlarni yaxshi oziqlantirish, ularni asrab avaylash hayotiy zaruriyatga aylangan edi. Kuzgi shudgor paytida ham asosiy ishchi kuchi qo‘sh-ho‘kizlar bo‘lib, ular qo‘shilgan omochlarda yer haydalar, shudgor qilinar edi. Erta bahorda esa yerni ekishga tayyorlash, six mola qilishda ham asosiy ishchi hayvon ho‘kizlar, ba‘zan otlardan foydalanilar edi. Bahorgi yumushlar qizigan mart – aprel oylarida kunlar uzayib, havo harorati ham ko‘tarilib borar, bunday sharoitda ayniqsa qishdan “eti yupun bo‘lib, yoki yo‘g‘on cho‘zildi – ingichka uzildi” bo‘lib chiqqan jonivorlarning xizmatidan foydalanish barobarida ularni asrab – avaylash ham zarur bo‘lgan.

Qadimgi buxoroliklar ishchi hayvonlarni yaxshi oziqlantirish bilan birga ularni salqin vaqtda, ko‘proq tunda va erta saharda ishga solganlar. Bahorgi yumushlar qizigan pallada ishga solingan ho‘kizlarga nisbatan “gava pushtash oftoba nabinad”-Ho‘kizning tanasi quyosh ko‘rmasin iborasi shundan shundan kelib chiqqan bo‘lib, ho‘kizlarni, umuman ishchi jonivorlarni quyosh tig‘ida ishlatmasdan, ularni asrab – avaylash, ishni salqin vaqtda amalga oshirish lozimligi nazarda tutilgan.

Erta bahorda yerlarni ekishga tayyorlash, ekishni o‘z vaqtida o‘tkazish ham alohida tayyorgarlik va tajribalarni talab qilgan. Buxorolik bobodehqonlar bahorning har bir lahzasidan unumli foydalanib ekish – tikish ishlarini o‘z vaqtida amalga oshirishga harakat qilganlar. Bahorning har daqiqasini g‘animat bilib, ekishni ertaroq amalga oshirishga intilganlar. Xalqda “sepilgan urug‘ ho‘kizning tanasiga tegmasin” iborasiga bahorgi ekish paytida yerga sepilgan urug‘ ishchi jonivorlarning tanasiga tegilib erga tushguncha vaqt boy beriladi, degan ma‘no anglatgan.

## TARIX

Yerga ishlov berish , ekinlarni parvarishlash borasida ham an'anaviy usullar asosida katta tajriba to'plangan. Ota bobolarimiz bir qator agrotexnik usullarni kashf qilganlar. Shulardan biri oq jo'xori ostini to'pchalash usulidir.

Ma'lumki, xalqimiz oshxonasida go'ja taomi qadimdan mavjud bo'lib , uni asosan oq jo'xoridan tayyorlashgan va qatiq qo'shib iste'mol qilingan . Oq jo'xorini yetishtirish esa boshqa ekin turlariga qaraganda alohida agrotexnika talab qilgan. Buning uchun mahalliy o'g'itdan yaxshilab to'yintirilgan , suvga qulay joy tanlanib ekin ekilgan. Ekin qator orasi, butalar oraligi 40 -50 sm dan kam bo'lmasligi kerak bo'lgan. Ekin unib chiqqandan so'ng uni yagonalab, begona o'tlardan tozalab turilgan.

Buxoroning issiq va quruq havo sharoiti , suv tanqisligi davrida balandligi bir metrcha keladigan oq jo'xorining har bir tubiga alohida – alohida ishlov berilib,osti yumshatilib,yumshoq tuproqdan kunda ostiga tortilib, to'pcha qilingan . Buning natijasida nam uzoq saqlangan va butaning mustahkamligi, shamol va tabiiy ofatlarga bardoshligi oshgan . Oq joxori 2 — 2,5 metr balandlikkacha o'sib , har bir tubi 3 — 4 tagacha bosh bog'lagan yoki har bir tubdan kamida bir kilogacha hosil olingan. Qishloq joylarida yashovchi buxoroliklarning ayvonida uzun qator qilib osib qo'yilgan oq jo'xori boshlarini kech kuzgacha uchratish mumkin edi. Yozning issig'ida obdon qurigan oq jo'xori boshlari yanchilib , doni sovurilib olingan , yaxshilab tozalanib, alohida quruq joyda saqlangan.Kuz va qish mavsumlarida uning donidan go'ja taomi pishirilib iste'mol qilingan

Buxoro an'anaviy dehqonchiligining yana bir usuli poliz mahsulotlaridan qovun va tarvuz yetishtirishda qo'llangan "Varqoni" usulidir. Bu usul haqidagi ma'lumotlarni tarixiy yozma manbalarda uchratmadik. Axborotchilarning xotiralariga suyanib fikr yuritdik .

Buxoro vohasining o'ziga xos iqlimi va tuproq sharoitida poliz mahsulotlari yetishtirish alohida qunt va tajriba talab qilgan. Zarafshon daryosining serunum tuproqli adog'lari, katta kanallarning to'g'on atroflari suvga serob , sernam va yumshoq bo'lib , daryo va kanallar oqizib kelgan loyqadan to'yinib , unumdorligi oshgan joylar edi. Bunday joylarda poliz ekinlaridan qovun va tarvuz ekilsa yuqori hosil berar edi. Ekilgan qovun unib chiqib , palak otib gulga kirgach,suvga bostirib sug'orilgan yoki toshqin bo'lsa suv ostiga qolgan. Bu holda yer tobga kelgach ag'darma chopiq qilinib , har bir tup ostiga tuproq to'pcha qilingan . Bu usulni suv inshootining bosh qismi to'g'on nomi bilan yoki qadimgi so'g'diy tilida "varq" — "to'g'on nomi bilan "Varqoni" deyilgan . Varqoni – to'g'on boshi dehqonchiligi bo'lib, yetishtirilgan poliz mahsulotlari serob va nihoyatda mazali bo'lgan.

An'anaviy Buxoro dehqonchiligida poliz ekinlarini yagonalashda alohida e'tibor qaratilgan. Xalqda "bir palakdan ikki qovun , ikki palakdan bir qovun" iborasida qovun,tarvuz,qovoq va boshqa ekinlarni o'z vaqtida yagonalashning nihoyatda zarurligi ko'rsatilgan.

Haydalgan yerdagi kesaklarni ezish, yerni tekislash hamda urug' sepilgandan so'ng ustidan tuproq tortish uchun mola ishlatilgan. Molaning ikki xil turi mavjud bo'lgan: biri katta, uzunligi 3-3,5 m. ko'p yillik tut yoki o'rik yog'ochidan yasalgan (yo'g'on tanali tut yoki uning tanasi poytesha bilan yo'nilgan). Molaning eni 40-60 sm bo'lgan. Molani ho'kizlar tortgan. Ho'kizlarni bir kishi yetaklagan, mola ustida ham bir odam o'tirgan. Mola aksariyat lalmikor erlarda, qatqaloq va xashakli yerlarda ishlatilgan. Bahorgi ekinlar ekiladigan yerlarda mola o'rnida shox-shabbali kichik daraxt tanasi ishlatilgan. Mola yasashga imkoni bo'lmagan kambag'al xo'jaliklar omochning shotisidan mola sifatida foydalanishgan. Molaning kichigi 2-2,5sm chamasi bo'lgan. Buni qo'sh ho'kiz, ot yoki tuya tortgan.

Buxoro vohasida qadimdan ishlatilib kelayotgan yer yumshatkich vositasi belkurakdir. Bu asbob temirdan yasalgan bo'lib, ishlatuvchining xohishiga qarab, maxsus quloq yasatilgan. Quloq belkurakning o'ng yoki chap tomonida bo'lgan. Ba'zi xonadonlarda ikki tepki quloq ishlangan belkurak bo'lgan. Belkurak yerni kovlash, aravaga go'ng yoki tuproq ortish, ariq qazish va paxsa devor qurishda qo'llanilgan. Belkurakning uzunligi 25-27 sm, eni 20-23 sm atrofida bo'lgan. Dastasining uzunligi 1,3-1,5 metrni tashkil etgan. Loy ishlarida belkurakdan farqliroq, loyni kesishga qulay va yengil bo'lgan kapcha ishlatilgan.

Qadimda dehqonchilikda keng ishlatiladigan mehnat quroli ketmon bo'lib. Buxoro vohasi ziroatchilari uchun ham bu qurolning xizmati katta bo'lgan. Bog'dorchilik, polizchilik, sabzavotchilik va g'allachilikda, umuman, yer ishlarida ketmon ishlatilgan. Ketmonlar ham shakli va hajmiga qarab bir-biridan farqlangan. Eni 30-32 sm, uzunligi 25-27 sm bo'lgan ketmonlar tuproq yuklarida,

ayniqsa, jo'yak olish, uvat ko'tarish, egat olish va yer tekislashda ko'proq ishlatilgan. Hajmi kichik ketmonlar esa o'simliklarning tagini yumshatish va chopiq qilishda qo'llanilgan. Ketmon dastasi asosan tol daraxtidan tayyorlangan. Voha dehqonlari yerdan ko'proq hosil olish uchun unga sifatli ishlov berishgan. Tadbirkor boylar kuzda erni bir-ikki marta ko'sh bilan haydashgan. Mola bosish, dalalarga suv tarqatish va mahalliy o'g'itlarni berish ishlari ham tajribali dehqonlar maslahati bilan amalga oshirilgan. Almashlab ekish ham dehqonchilikda asosiy o'rinda turgan. O'simliklarning mavsumiy xususiyatlaridan kelib chiqib, birining o'rniga ikkinchisini ekishgan. Albatta, bu jarayonda ob – havoning qanday kelishi va tuproqning o'ziga xos xususiyatlari ham hisobga olingan.

O'rta Osiyodagi barcha xalqlar singari Buxoro vohasi dehqonlari ham XX asrning boshlarida donli ekinlarni ko'proq ekishgan. Kuzda haydalgan yerlarga bug'doy, arpa ekilgan. Urug' qo'l bilan sepilgan va ustidan mola tortilgan. Don ekilgan to'qay erlar asosan. maysa unib chiqqach, boshqoq olish oldidan va don xamirga aylanganidan so'ng 2-3 marta sug'orilgan.

Axborotchilarimizning ta'kidlashlaricha, obikor yerlarga oq bug'doy lalmikor yerlarga «qizil bug'doy», «qora qiltiq bug'doy» ekilgan. Hosil yig'ib olingandan keyin bo'shagan yerlarga mosh, kunjut, uch oylik oq jo'xori. tariq ekilib. yaxshi hosil olingan. Ba'zi dehqonlar qayta ekishga sabzavot va poliz ekinlarini, xususan, sabzi, sholg'om, tarvuz kabilarni ekishni ma'qul ko'rishgan. XX asrning boshida asosiy maydonlarga bug'doy, arpa bilan birga no'xat, zig'ir, kunjut, makka, kungaboqar kabi donli va boshqoqli ekinlar ham ekilgan. Hosildan bo'shagan paykallarning barchasida qayta ekish to'liq amalga oshirilmagan. Chunki qayta ekish uchun dehqonlarning hamma vaqt ham imkoniyati bo'lmagan. Paykallarning asosiy qismi o'rimdan so'ng sug'orilgan, qo'sh bilan 2-3 marta haydalgan. Noyabr oyining oxiri, dekabr oyi ichida yerga «yaxob» suvi berilgan. Albatta, sug'orilgan yerlar bahorgi ekish mavsumi boshlangunga qadar dam olib yotgan.

XIX asrning oxirlarida Turkiston o'lkasida sug'oriladigan barcha maydonning 70 foiziga g'o'za ekilgan, xolos. Paxta maydonlari Buxoro amirligida 62 foiz, birgina Qashqadaryo vohasida esa 2 ming gektarni tashkil etgan. XX asrning boshlarida Buxoro amirligi Angliyaga va boshqa chet mamlakatlarga turli xil qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotgan. Mahsulotlar ichida paxta ko'p bo'lgan. Bu esa o'z navbatida Buxoro vohasining Qorako'l, Olot, Romitan kabi tumanlarida paxtaning ko'p ekilishiga sabab bo'lgan. Vohada «Mavri g'o'za», «Malla paxta» navlari ekilgan. Chorikorlar yetishtirgan paxta hosili katta er egalari tomonidan sotilgan. Boylar korxonalar (paxtani qayta ishlaydigan kichik korxonalar) qurib, paxtani chigitdan ajratishgan va olingan toladan ip yigirishgan. Iplardan shoyi matolar to'qishgan. O'rta Osiyo xonliklari bilan savdo-sotiqni rivojlantirish masalasini o'rganish uchun yuborilgan polkovnik Strukovning yozishicha, «Osiyoliklar keltirayotgan turli xil to'qima matolarni oddiy xalq juda xush ko'rib ishlatadi, chunki ular yumshoq va chidamli bo'lgani uchun davlatdagi armiya uchun juda zarur bo'lgan kanop mato o'rnini bosa oladi». Rus zobitining bu fikrlarini axborotchilarimizdan olingan ma'lumotlar ham tasdiqlaydi.

Yashash sharoiti qanchalik og'ir bo'lmasin, voha ziroatchilari hamisha bir-biriga yordam qo'lini cho'zib kelgan. Ariq ochish, tozalash ishlari kuzning oxiri va qish davri hamda erta bahorda hashar yo'li bilan amalga oshirilgan bo'lsa, xirmondagi donni ajratish, g'o'zani chopiq qilish, ko'sak chuvish, tok, anor, anjirlarni ko'mish va ochish, daraxtlarga ishlov va shakl berish kabi ishlarni ham dehqonlar hamjihat bo'lib bajarishgan.

Birinchi jahon urushi arafasida Rossiyaning Turkistonda olib borgan mustamlakachilik siyosati boshqa soha vakillari kabi dehqonlarning ham ahvolini og'irlashtirgan. Soliqlarning haddan ortiq ko'payganligi ekin maydonlarining qisqarishiga olib keladi. Xalq bir amallab tirikchilik o'tkazish uchun ishchi ho'kiz o'rnida hattoki o'zlarini omochga qo'shib yer haydaganliklari, ketmon bilan ertayu – kech yer chopganliklari haqidagi ma'lumotlar axborotchilarimiz xotiralarida saqlangan.

Almashlab ekish an'anasiga rioya etilmaganligi natijasida g'o'zaning yomon parvarish qilinishi dalalarning quvvatsizlanishiga, paxta hosilining pasayishi va majud navlarning buzilishiga, shuningdek, boshqa sifat ko'rsatkichlarining yomonlashuviga olib keldi. 1916-yildagi ob-havo sharoiti (ko'klamning kech va sovuq kelishi, yozdagi qurg'oqchilik, chigirtka bosishi) iqtisodiyotning va paxtachilik agrotexnikasining ahvolini yanada og'irlashtirdi.

Butun Turkiston o'lkasi uchun berilgan bu tavsif Buxoro vohasidagi ahvolni ham ifodalagan, desak xato bo'lmaydi.

## XULOSA

## TARIX

XIX asr oxiri XX asrning boshlarida Buxoro vohasida g'alla, paxta yoki boshqa poliz ekinlarini ekib parvarishlash dehqonlar uchun qo'l mehnati bilan bajariladigan mashg'ulotlar ancha og'ir bo'lgan. Sug'orish shoxobchalarining talabga javob bermaganligi, unumdor yerlarning boy – badavlat kishilar tomonidan bo'lib olingani, Buxoro amiri tomonidan undirilgan soliqlarning haddan ortiqligi, qishloq xo'jalik texnikasi va ish qurollarining oddiyligi madaniy ekinlar hosildorligini oshirishga imkon bermagan.

Dono xalqimiz, tadbirkor bobo dehqonlarimiz ming yillar davomida yerga ishlov berish, ekin ekib mo'l hosil olishning o'ziga xos usullari va tadbirlarini yaratib, Quyi Zarafshonning murakkab tabiiy sharoitida ham jahon ziroatchilik madaniyatiga o'ziga xos munosib hissa qo'shganlar, og'ir sharoitlarga qaramay o'zlarining asriy tajribalari asosida an'anaviy dehqonchilik usullari yordamida mo'l-ko'l hosil yetishtirishga muvaffaq bo'lganlar.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. И.А.Каримов. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида; "Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари." – Т., Ўзбекистон, 1997. – Б. – 145. (I.A. Karimov. Uzbekistan is on the threshold of the 21st century; "Security Threats, Stability Conditions, and Development Guarantees." - T., Uzbekistan, 1997. - B. - 145.)
2. Андреев М.С. Таджики долины Хуф. Сталинабад, 1953. -Выш.1. - С. 1 1-12. (Andreev M.S. Tajiks of the Khuf Valley. Stalinabad, 1953. - Higher 1. - S. 1 1-12).
3. Богомолова К.А. Следь древнего культа воды у таджиков//Изв.отд. общественных наук. АН Тадж ССР. Сталинабад, 1952. - Выш. 2. - С. 19-21.( Vogomolova K.A. Traces of the ancient cult of the waters among the Tajiks//Izv.otd. social sciences. Academy of Sciences of the Taj SSR. Stalinabad, 1952. - Vsh. 2. - S. 19-21.)
4. Кисляков Н.А. Патриархально-феодальное отношение среди оселого сельского населения Бухарского ханства в конце XIX - начала XX вв//ТИЭ. -М-Л. 1962. – С 28-29.(Kislyakov N.A. Patriarchal-feudal attitude among the settled rural population of the Bukhara Khanate in the late XIX - early XX centuries // TIE. -M-L. 1962. - From 28-29.)
5. Моногарова Л.Ф. Материалы по этнографии ёзгулумцев//ТИЭ. и.с.. 1959. т.Х1. - Вып. VII - С. 12 (Monogarova L.F. Materials on the ethnography of the people of Ezgulum//TIE. I.S. 1959. v.X1. - Issue. VII - S. 12)
6. Мухиддинов И.Реликти доисламских обычаев и обрядов у земледельцев Западного Памира (XIX-начало XX в). -Душанбе, 1989. -С. 11.( Mukhiddinov I. Relics of pre-Islamic customs and rituals among the farmers of the Western Pamirs (XIX-early XX century). -Dushanbe, 1989. -S. eleven.)
7. Мирзаев Т., Жўраев М. Асрларни мунаввар қилган байрам-Наврўз. -Т., 1992. –Б.58.( Mirzaev T., Joraev M. Navroz is a holiday that has illuminated the ages. -T., 1992. -B.58.)
8. Akhmatovna D. N., Bahriddinovna T. G. Traditions related to harvesting grain crops in Bukhara region (The end of XIX century and the beginning of XX century) //Academy. – 2020. – №. 6 (57).
9. Шаниязов К.Ш. Узбеки - карлуки. -Т., 1964. -Б. 169.( Shaniyazov K.Sh. Uzbek - Karluki. -T., 1964. -B. 169 )
10. Рожкова М.К. Экономическая политика царского правительства на Среднем Востоке во второй четверти XIX века и русская буржуазия. - М. Л . 1949. -С. 41 (Rozhkova M.K. Ekonomicheskaya politika tsarskogo pravitelstva na Srednem Vostoke and second quarter of the 19th century Russian bourgeoisie. - M. L. 1949. -S. 41)